

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

NORMATOV MANSURBEK QO‘ZIBOYEVICH

**PAXTA TERISH MASHINASI PNEVMOTRANSPORT TIZIMINING
SAMARADOR MARKAZDAN QOCHMA VENTILYATORI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of
philosophy (PhD) on technical sciences**

Normatov Mansurbek Qo‘ziboyevich

Пахта терish mashinasi pnevмотransпорт tizimining samarador markazdan qochma ventilyatori parametrlarini asoslash..... 3

Норматов Мансурбек Кузибаевич

Обоснование параметров эффективного центробежного вентилятора пневмотранспортной системы хлопкоуборочной машины 19

Normatov Mansurbek Kuzibaevich

Justification of the parameters of an effective centrifugal fan of pneumatic transport system of cotton picking machine..... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 39

**QISHLOQ XO‘JALIGINI MEXANIZATSIYALASH ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.05/13.05.2020.T.112.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
M.T.O‘ROZBOYEV NOMIDAGI MEXANIKA VA INSHOOTLAR
SEYSMIK MUSTAHKAMLIGI INSTITUTI**

NORMATOV MANSURBEK QO‘ZIBOYEVICH

**PAXTA TERISH MASHINASI PNEVMOTRANSPORT TIZIMINING
SAMARADOR MARKAZDAN QOCHMA VENTILYATORI
PARAMETRLARINI ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya
ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Gulbahor – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2025.2.PhD/T4283 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi M.T.O'rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi www.qxmiti.uz va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Xudaykuliyev Rajabboy Ro'zmatovich
texnika fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Rasmiy opponenlar: Tolibayev Alpisbay Yerjanbayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Qodiraliyev Akbarjon
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Yetakchi tashkilot: Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/13.05.2020.T.112.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "20" 11 soat 14⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Dissertatsiya bilan Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash ilmiy-tadqiqot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (506 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 110800, Toshkent viloyati, Yangiyo'l tumani, Gulbahor shaharchasi, Samarqand ko'chasi, 41-uy. Tel.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "31" 10 kuni tarqatildi.
(2025-yil "31" 10 da № 63 raqamli reestr bayonnomasi).



A. To'xtaqo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor

B.P. Artikbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta ilmiy xodim

K.K. Nuriyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda paxta hosilini teradigan energiya va resurstejamkor yuqori samarali paxta terish mashinalarini ishlab chiqish va ularni amaliyotda qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. "Dunyoda 90 dan ortiq mamlakat paxtachilik bilan shug'ullanishi va har yili 32 mln. gektar maydonda paxta hosili yetishtirilishini"¹ hisobga olsak paxta terimida mexanizatsiyalash darajasini oshirish, resurstejamkor texnologiyalar va texnika vositalarini joriy etish muhim vazifalardan hisoblanmoqda. Bu borada mashina terimida bunkerga terilgan paxtaning sifat ko'rsatkichlarini oshirish uchun paxtaning ifloslanishi va paxta chigitining shikastlanishini kamaytirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda paxta hosilini terishda resurstejamkor va samarador texnika vositalarini yaratish, mavjudlarini takomillashtirish orqali ularning ish sifatini oshirish hamda energiya-material hajmdorligini kamaytirishga doir ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu yo'nalishda paxta terish mashinalarining kam energiya sarflagan holda ish unumini oshirish, terilgan paxtaning ifloslanishi va chigitlarning shikastlanish darajasini agrotexnik talablar darajasida bo'lishini ta'minlash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, hosilni ilg'or texnologiyalar asosida yig'ishtirish va yuqori ish unumiga ega mashinalarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan paxta hosilini terib olishda kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta'minlaydigan takomillashtirilgan texnika vositalarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida, jumladan, "...qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash"² vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimi uchun takomillashtirilgan markazdan qochma ventilyatorning maqbul parametrlari va rejimlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi va 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi

¹ Cotton: World Statistics. <http://www.ICAC.org>; <https://www.statista.com>.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni.

Farmonlari hamda 2019-yil 31-iyuldagi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jalik texnikalari bilan ta‘minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoni o‘rganilganlik darajasi. Paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimlarini takomillashtirish borasida xorijda T.S.Solomaxova, B.G.Turbin, K.F.Shpitalnikov (Rossiya), Yiannis G. Ampatzidis, Stavros G. Vougioukas, Mathev D. Whiting, in Zhang (Isroil), Jingshan Tian, Vangfeng Zhang, Hengyi Dong, Zhan Zhao, Tian Jingshan, Zhang Xuyi, Zhang Vangfeng, Li Jianfeng, Yang Yanlong, Yu Yongchuan, Zhao Zhan, Zuo Vening (Xitoy), E. Mygdakos, T.A. Gemtos (Gretsiya), A. Kılıçkan, M. Güner, Erdal Oz (Turkiya), Donald Holley (AQSh), Jaymin Bhalani (Hindiston) va boshqa olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

Respublikamizda esa ushbu yo‘nalishda M.V.Sablikov, D.M.Shpolyanskiy, A.D.Glushenko, R.D.Matchanov, M.T.Toshboltayev, R.R.Xudaykuliyeu, G.A.Koshevnikov, L.M.Shvartsman, T.Sh.Shamsutdinov, P.I.Zilberman, N.B.Barer, A.G.Arzumanyants, V.A.Berejnoj, A.A.Slobodkin, N.A.Artikov, X.A.Ziyaev, Z.X.Alimova, S.O‘sarov, A.A.Rizaev, A.T.Yuldashev, D.A.Qo‘ldoshev, R.A.Xamidov va boshqa olimlar shug‘ullanishgan.

Bu tadqiqotlar natijalari asosida yaratilgan turli konstruktsiyadagi pnevmotransport tizimlariga ega paxta terish mashinalari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida ma‘lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo‘llanilib kelinmoqda. Ammo, bu tadqiqotlarda mavjud tizimning energiya sarfini hamda chigitning tabiiy sifati buzilishini kamaytirish imkonini beradigan markazdan qochma ventilyator ishlab chiqish hamda parametrlarini asoslash masalasi yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi M.T.O‘rozboyev nomidagi Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti va Qishloq xo‘jalik mashinasozligi konstruktorlik texnologik markazining qo‘shma AL-210202547 “Ko‘p qatorli paxta terish mashinalari uchun universal-energiya tejamkor pnevmotransport tizimini ishlab chiqish va yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimi markazdan qochma ventilyatorining samarador konstruktsiyasini ishlab chiqish va uning parametrlarini asoslash hisobiga energiya hajmdorlikni kamaytirish va paxtaning tabiiy sifatini imkon qadar saqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari. Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi tadqiqot vazifalari belgilab olindi:

jahonda va mamlakatimizda ishlab chiqarilgan paxta terish mashinalarining pnevmotransport tizimi konstruksiyasini takomillashtirish borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot hamda tajriba-konstruktorlik ishlarini tahlil qilish;

samarador konstruksiyadagi markazdan qochma ventilyatorning agrotexnik talablari darajasida ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta'minlovchi parametrlari va rejimlarini nazariy asoslash;

samarador markazdan qochma ventilyatorga ega pnevmotransport tizimini traktorning quvvat sarfiga va paxtaning tabiiy sifatiga ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribaviy tadqiqotlar o'tkazish;

asoslangan parametrlarga ega bo'lgan samarador markazdan qochma ventilyatorni mavjud paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimlarida qo'llashning iqtisodiy samarasini aniqlash.

Tadqiqotning obyektini sifatida paxta terish mashinalarining pnevmotransport tizimi, jumladan markazdan qochma ventilyator, tizim uzellaridagi texnologik jarayonlar olingan.

Tadqiqotning predmetini energiya va sifat jihatdan samarador markazdan qochma ventilyator yon kirish darchasi shaklini ifodalovchi matematik model, pnevmotransport tizimining aerodinamik hisobi hamda ventilyator ichidagi jarayonlarni tadqiq qilish uchun kompyuter modellari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pnevmotransport tizimining aerodinamik hisobi, kompyuterli dasturlar yoramida modellashtirish, matematik ifodalar, qishloq xo'jalik mashinalari nazariyasi, hisoblash dasturlari va davlat standartlari (ГОСТ 22587-91, О'zDSt 3225:2017, TSt 63.03.2001, ПД У3 63.03-98) hamda amaldagi me'yoriy hujjatlarda belgilangan usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimining samarador markazdan qochma ventilyatori parragingining ish rejimi terim sifat ko'rsatkichlarini agrotexnik talablar darajasida ta'minlanishini hisobga olgan holda asoslangan;

samarador markazdan qochma ventilyator yon kirish darchasining ovoid shaklini ifodalovchi matematik model ventilyatorining ish unumi maksimal bo'lishi lozimligi shartidan keltirib chiqarilgan;

ventilyator ichidagi jarayonni ifodalovchi kompyuter modeli ventilyator parragingining paxta chigitlariga minimal ta'sir ko'rsatishni ta'minlash shartidan keltirib chiqarilgan;

pnevmotransport tizimi samarador markazdan qochma ventilyatori yon kirish darchasi yuzasi va parrak aylanishlar sonining maqbul qiymatlari uning ish unumini maksimal bo'lishini ta'minlash shartidan aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

pnevmotransport tizimi uchun yuqori ish unumini ta'minlaydigan markazdan qochma ventilyatorning samarador konstruksiyasi ishlab chiqilgan va parametrlari asoslangan;

ishlab chiqilgan samarador markazdan qochma ventilyator paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimida qo'llanilganda yonilg'i sarfi va chigitlar shikastlanish darajasining kamayishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning zamonaviy uslublar va o'lchov asboblari yordamida amalga oshirilganligi, havo oqimlarini aerodinamik hisoblash qoidalari va usullariga rioya qilinganligi, zamonaviy kompyuterli loyihalash dasturlaridan foydalanilganligi, olingan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijalarining turli mezonlar bo'yicha o'zaro muvofiqligi, samarador markazdan qochma ventilyatorga ega pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasi laboratoriya va dala sinovlari natijalarining ijobiyliigi va amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati samarador markazdan qochma ventilyatorning kam energiya sarflagan holda ish sifatini ta'minlovchi yon kirish darchasi parametrlari asoslanganligi hamda olingan matematik va kompyuter modellaridan boshqa shunga o'xshash bo'lgan ventilyatorlar parametrlarini asoslashda foydalanish mumkinligi tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati markazdan qochma ventilyatorning samarador konstruksiyasi qo'llanilganda paxta terimining sifat ko'rsatkichlari agrotexnik talablar darajasida bo'lishi, yonilg'i-moylash materiallari, mehnat sarfi va foydalanish xarajatlarini kamaytirish va ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimi uchun samarador ventilyator parametrlarini asoslash bo'yicha olingan natijalar asosida:

mazkur samarador konstruksiyadagi markazdan qochma ventilyator uchun Intellektual mulk markazining foydali modelga "Paxta terish mashinasida paxtani tashish uchun markazdan qochma ventilyator" FAP 2530 raqamli patent olingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-281-son ma'lumotnomasi). Natijada paxta terish mashinasi pnevmotrasport tizimi uchun samarador ventilyator konstruksiyasini ishlab chiqish imkoni yaratilgan;

takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasi Toshkent viloyati "Qishloq xo'jalik texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi", "TCT AGRO CLUSTER" va "Hur O'lka Fayz" fermer xo'jaliklariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-281-son ma'lumotnomasi). Natijada terilgan paxta chigitlarining shikastlanishi 2,87 % dan 0,8 % gacha kamaytirishga erishilgan va iqtisodiy samaradorlik olingan;

samarador ventilyatorga ega pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasining sanoat nusxalarini ishlab chiqish va tayyorlash uchun uning loyiha-konstruktorlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq va chizmalar) "Qishloq xo'jalik mashinsozligi-konstruktorlik texnologik markazi",

“Anor Upgrowth” MChJ va “Tex Inno Way” MChJlarda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 30-maydagi 05/04-04-281-son ma‘lumotnomasi). Natijada paxta terimini agrotexnika talablari darajasida ta‘minlaydigan yarim osma paxta terish mashinasini sanoat usulida ishlab chiqarish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta xalqaro 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda Intellektual mulk markazining foydali modelga 1 ta patent, elektron hisoblash mashinalari uchun 1 ta dasturiy guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 115 betni tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotni respublika fan va texnologiyalar rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga mosligi va dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalar ishonchliligi asoslab berilgan, olingan natijalarni nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Muammoning qo‘yilishi hamda tadqiqot vazifalari”** deb nomlangan birinchi bobida paxta terish mashinalari sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashda va quvvat sarfini kamaytirishda pnevmotransport tizimi markazdan qochma ventilyatorining o‘rni va ahamiyati, agrotexnik talablar, turli konstruksiyadagi paxta terish mashinalari pnevmotransport tizimlarining tuzilishi hamda ishlash prinsiplari, pnevmotransport tizimini takomillashtirish borasidagi ilmiy tadqiqotlar va pnevmotransport tizimi ventilyatorlari bo‘yicha patentlar tahlil etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Pnevmotransport tizimi ventilyatori konstruksiyasini takomillashtirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi uchun ventilyatorning geometrik hamda kinematik parametrlari nazariy jihatdan asoslangan. Ishlab chiqarishdagi hamda samarador ventilyatorga ega pnevmotransport tizimlarining aerodinamik hisoblari bajarilgan. Ventilyator ichidagi jarayon kompyuter dasturi orqali modellashtirilgan.

Quyidagi 1-rasmdagi sxemada ovoid shakldagi yon kirish darchasiga ega ventilyator sxemasi keltirilgan. Bu sxemada ko'rsatilgan ventilyatorning yon kirish darchasining yuzasi $S=0,226 \text{ m}^2$ ga teng. Ventilyator parrak 1, asosiy o'q 2, tayanch 3 va spiralsimon korpus 4, yon devor 5, kirish darchasining doirasimon qismi 6, parabolasiimon qism 7, yo'naltiruvchi quvur 8, havo to'plagich 9 va chiqish darchasi 11 dan iborat.



- 1 – parrak; 2 – asosiy o‘q; 3 – tayanch; 4 – spiralsimon korpus; 5 – yon devor;
 6 – darchaning doirasimon qismi; 7 – darchaning parabola qismi; 8 – yo‘naltiruvchi quvur;
 9 – havo to‘plagich; 10 – paxta; 11 – chiqish darchasi

1-rasm. Taklif qilinayotgan ventilyatorning yon kirish darchasining sxemasi

Kirish darchasining diametri parrak diametriga teng va uning bo‘ylama o‘qi ventilyatorning vertikal o‘qiga nisbatan $\beta=30^\circ$ burchak ostida qiya o‘rnatilgan. Ventilyator korpusi 4 ga yo‘naltiruvchi quvur 8 $\alpha=40^\circ$ burchak ostida payvandlangan. Parrak 1 markazidagi so‘ruvchi aerodinamik kuchdan hosil bo‘ladigan havo oqimining yuqori tezligi tufayli tashilayotgan paxta o‘zining inersiyasi orqali bilan jipslanadi. Yon kirish darchasining o‘lchamlari kattalashishi natijasida paxtaning ventilyatorga kirish qismidagi kritik tezlik ($v_{kr}=28-30 \text{ m/s}$) dan kam bo‘lganligi sababli nazariy jihatdan ventilyatorning paxta chigitlariga salbiy mexanik ta’siri minimum darajada bo‘ladi.

1-rasmda ko‘rsatilgan ovoid shaklning ordinatalari (1)-(3) formulalar yordamida ifodalanadi:

parabola BCD :

$$y_{BCD} = R + y_0 - 1.8 \cdot 10^{-5} R \cdot x^2; \quad x \in (-x_0; x_0), \quad (1)$$

qisman doira $ABDE$:

$$y_{ABDE} = \sqrt{R^2 - x^2}; \quad x \in (-R; -x_0) \cup (x_0; R), \quad (2)$$

yarim doira AEF :

$$y_{AEF} = -\sqrt{R^2 - x^2}; \quad x \in [-R; R], \quad (3)$$

bunda R – parrak diametri, m; x – ovoidning absissa o‘qi (ko‘ndalang o‘q), m; y_0 – doiradan parabolaga silliq o‘tishdagi boshlang‘ich koordinata, m.

Ventilyator parragining radiusi $R=250$ mm ga teng.

bunda $\angle BOD=140^\circ$, $OK=y_0=R \cdot \cos 70^\circ=250 \cdot \cos 70^\circ=85,5$ mm;

$KD=x_0=R \cdot \sin 70^\circ=250 \cdot \sin 70^\circ=235$ mm ga teng bo‘ladi.

Bosim yo‘qotilishlari va zaruriy quvvatni hisoblashda paxta terish mashinasining pnevmotransport tizimidagi havo oqimi tezliklari asos qilib olindi.

Tizimdagi bosim yo‘qotilishlari quyidagi ifoda yordamida hisoblandi:


$$\Delta p_i = 0,5 \xi_i \rho v_i^2, \quad (4)$$

bunda ξ_i – aerodinamik qarshilik koeffitsienti;

ρ – havoning zichligi, kg/m^3 ;

v_i – qaralayotgan kesimdagi havoning o‘rtacha tezligi, m/s.

Takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi 7 ta asosiy qismdan iborat (2-rasm). Hisoblashlar mazkur tizim konstruksiyasining o‘ziga hosliklari inobatga olingan holda olib borildi.



1 – qabul kamerasi; 2,3 – egiluvchan quvurlar; 4 – yo‘naltirgich; 5,6 – mos ravishda havo to‘plagichning boshlanish va tugash qismi; 7 – diffuzor

2-rasm. Paxta terish mashinasining takomillashtirilgan pnevmotransport tizimining hisob sxemasi

Tizimdagi umumiy bosim yo‘qotilishi aniqlangach ventilyator uchun talab qilinadigan quvvat quyidagi formula orqali aniqlanadi:


$$N = \frac{p_{um} \cdot Q}{\eta}, \quad (5)$$

bunda: p_{um} – tizimdagi umumiy bosim, Pa;

Q – ventilyator ish unumi, m^3/s ;

η – ventilyatorning FIKi. Odatda bu turdagi ventilyatorlarda $\eta=0,5$ ga teng.


Quyidagi 3-rasmda yarim tirkama paxta terish mashinasining mavjud, tajribaviy va takomillashtirilgan konstruksiyadagi pnevmotransport tizimlari ventilyatori uchun zaruriy quvvat qiymatlarining ustunli diagrammasi keltirilgan.




3-rasm. Yarim tirkama paxta terish mashinasining turli konstruksiyadagi pnevmotransport tizimlari quvvat sarfining qiyosiy ustunli diagrammasi

Ventilyatorlarda sodir bo'layotgan jarayonni tadqiq qilish uchun kompyuterli model-lashtirish usulidan foydalanildi. Bunda parrakning aylanishlar soni 600-1800 r/min sharoitdagi havo oqimining tezliklari (m/s) va va ish unumi (havoning hajmiy sarfi, m³/s) ning o'zgarishi ko'rib chiqildi. Quyidagi 4-rasmda mavjud ventilyator (4, a-rasm)

va takomillashtirilgan (4, b-rasm) konstruksiyadagi ventilyatorning turli aylanishlar sonida ventilyator ichida havo harakatining tasvirlari keltirilgan. Solid Works dasturi yordamida kompyuterli modellashtirishdan olingan natijalar oldingi bajarilgan tadqiqot ishlaridagi tavsiyaviy qiymatlar asosida tahlil qilindi.



a – mavjud ventilyator




b – takomillashtirilgan ventilyator

4-rasm. Ventilyator ichida havoning harakatining kompyuter modeli

Kompyuter dasturi orqali olib borilgan nazariy tadqiqotlarda turli aylanishlar sonidagi o'rtacha qiymatlar tanlab olinib, ular asosida grafiklar qurilgan.


5-rasmda paxtaning ventilyator parraklariga urilish paytidagi tezligining parrak aylanishlar soniga bog'liqligi grafigi keltirilgan. Grafikdan ko'rinib turibdiki, takomillashtirilgan ventilyator ichida paxta nisbatan kichik tezliklarda parrak bilan ta'sirlashadi. Bu esa paxtaga etadigan mexanik shikastlanishlarni minimallashtiradi.

6-rasmda ventilyator ish unumining parrak aylanishlar soniga bog‘liqligi grafigi keltirilgan.



1 – mavjud; 2 – takomillashtirilgan

5-rasm. Paxtaning ventilyator parraklariga urilish paytidagi tezligining parrak aylanishlar soniga bog‘liqligi



6-rasm. Ish unumi (hajmiy havo sarfi)ning parrak aylanishlar soniga bog‘liqligi

Grafikdan ko‘rinib turibdiki, takomillashtirilgan konstruksiyadagi ventilyatorda $n=1200$ r/min holati ish unumini tavsiya etilgan qiymatlarda, ya’ni $Q=2,2$ m³/s bo‘lishini ta’minlab bera oladi. Bu holat paxtaning terish apparati orqali terilgan paxtani ishonchli tashilishi uchun yetarlidir. Mavjud konstruksiyada esa ish unumini aynan shu qiymatda ta’minlash uchun parraklar aylanishlar soni $n=1600$ r/min atrofida bo‘lishi lozim. Bu esa o‘z navbatida ventilyator uchun qo‘shimcha quvvat sarfi talab qiladi.

Dissertatsiyaning **“Samarador ventilyator bilan jihozlangan pnevmotransport tizimini yaratish va laboratoriya sinovlarini o‘tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida takomillashtirilgan pnevmotransport tizimini tadqiq



Ventilyator
havo to‘plagich
moslashuvchan gofrali quvur
tasmali uzatma
qabul kamerasi
elektrovigatel

qilish stendini tayyorlash hamda unda o‘tkazilgan tajribalar natijalari va ularning tahlillari keltirilgan. Nazariy hisoblashlarga asoslangan holda samarador ventilyatorga ega pnevmotransport tizimining 3D modellari va eskizlari shakllantirildi. Konstruksiya uchun dastlabki talab va texnik topshiriqlar ishlab chiqilgan. Shular asosida tajriba stendi tayyorlandi hamda tajribalar o‘tkazildi (7-rasm).

1,2 – diffuzor;

3 – so‘ruvchi quvur-ning tepa qismi;

4,5 – so‘ruvchi quvurning pastki qismi;

6 – havo to‘plagich; 7 – qabul kamerasining tepa

qismi; 8 – qabul kamerasining pastki qismi

7-rasm. Paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimini tadqiq etish stendining umumiy ko‘rinishi (1 dan 8 gacha raqamlar havo oqimi tezligini o‘lchash nuqtalari)

Ventilyator yon kirish darchasi FAP 2530 raqamli patentga muvofiq tayyorlangan.

Tizimdagi havo oqimi tezliklarini o'lchash ishlari 7-rasmda keltirilgan xarakterli nuqtalarda amalga oshirildi. Bunda zamonaviy lazerli taxometr va havo oqimi tezligi hamda bosimini o'lchovchi "Anemomaster" qurilmasidan foydalanildi.

Ushbu nuqtalarda o'lchab olingan havo tezliklari qiymatlari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan. Bunda I-IV bo'lgan raqamlar qabul kameralari tartib raqamini ifodalaydi.

1-jadval

Ventilyator aylanishlar soniga bog'liq holda tizimdagi havo oqimi tezliklarining o'zgarishi

№	Parrakning aylanishlar soni n , r/min	Havo oqimi tezligi, m/s (1-5)				
		1	2	3	4	5
1	1000	4,8	8,4	11,8	4,8	8,1
2	1200	5,6	9,6	13,1	5,6	9,6
3	1400	5,9	12,7	16,7	5,9	10,2
4	1600	7,0	13,9	18,3	6,3	12,7

1-jadvalning davomi

№	Parrakning aylanishlar soni n , r/min	Havo oqimi tezligi, m/s (6-8)											
		I			II			III			IV		
		6	7	8	6	7	8	6	7	8	6	7	8
1	1000	12,6	13,1	5,6	12,1	13,6	8,0	12,0	12,4	6,1	12,4	12,1	5,7
2	1200	13,7	14,0	5,8	14,2	16,5	9,6	13,8	14,1	7,4	13,8	12,7	6,3
3	1400	16,6	16,7	6,2	15,8	18,6	11,5	15,1	16,2	9,4	17,4	14,2	7,8
4	1600	18,1	18,8	6,9	17,5	19,2	12,0	16,5	17,4	9,8	18,8	16,8	8,9

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, pnevmotransport tizimining pastki qismida havo oqimi tezligining eng kam qiymati 5,6 m/s ni tashkil qildi. Bu esa paxtaning ruxsat etilgan muallaqlik tezligi (paxta naviga qarab $v_m=4,8-5,1$ m/s oraliqda) dan 1,1 marta ko'p.

Pnevmotransport tizimining samarador konstruksiyadagi markazdan qochma ventilyatorining paxta chigitlariga mexanik ta'siri darajasini aniqlash maqsadida tajribaviy tadqiqotlar o'tkazildi. Bunda ventilyatorning yon kirish darchasi organik shishadan tayyorlandi. Ventilyator ichida paxtaning harakati tasvirga olindi. Bu holatda terilgan paxtaning 30 % dan ortiq qismi ventilyator ovoid shakldagi yon kirish darchasing samarasi tufayli parrak va ventilyator korpusi bilan ta'sirlashmasdan bunkerga uzatildi (8-rasm).



I II III IV
8-rasm. Paxtaning ventilyator ichidagi harakatining tasvirlari

Bu holatda chigitlar shikastlanishi 3-3,5 marta kamaydi.

Tajribaviy tadqiqotlar ko‘p omilli tajribalarni rejalashtirish usullaridan foydalanib o‘rganiladi. Tadqiqotlar 3^2 reja bo‘yicha olib borildi. Bunda omillar 3 darajada (+1, 0, -1) turlanadi va o‘tkazilgan tajribalar soni $3^2=9$ ga teng.

2-jadval

Tajriba omilining o‘zgarishi darajalari va intervallari

№	Omil nomi	O‘lchov birligi	Belgilanishi	Omillar sathlari va qiymatlari			Interval
				-1	0	+1	
1	Yon kirish darchasining yuzasi	S, m^2	x_1	0,17	0,2	0,23	0,03
2	Parrak aylanishlar soni	$n, r/s$	x_2	16,7	20,0	23,3	3,3

3-jadval

Tajribaning chiquvchi parametri

Belgilanishi	Nomlanishi	Qiymati
ΔQ	Ish unumi	m^3/s

Regressiya tenglamasi quyidagi ko‘rinishga ega:

$$y = 2,121 + 0,03x_2 - 0,107x_1^2 - 0,023x_2^2 + 0,037x_1x_2, \quad (6)$$

Regressiya tenglamasini soddalashtirib, pnevmotransport tizimi ventilyatori uchun quyidagi ko‘rinishda yozib olishimiz mumkin:

$$\Delta Q = -0,27152 + 40,0853S + 0,1601n + 0,3737Sn - 118,89S^2 - 0,002116n^2, \quad (7)$$


Nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning o‘zaro muvofiqligi A.N.Kolmogorovning moslik mezonini orqali tekshirildi va u quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$D = \max|f_n - f_t|, \quad (8)$$


$$\lambda = D\sqrt{n}, \quad (9)$$

A.N.Kolmogorov moslik mezonini uchun maxsus jadvallar mavjud. Ushbu mezonning asosiy sharti $\lambda \leq (1,0-1,2)$ bo'lishini e'tiborga olsak, ish unumining nazariy va empirik (tajribaviy) qiymatlari mos kelishini ishonch bilan aytish mumkin.

Regressiya tenglamasi asosida kiruvchi omillarning chiqish kattaligiga ta'siri quyidagi 9-10 rasmlarda keltirilgan.



9-rasm. Ventilyator ish unumining yon kirish darchasi yuzasiga bog'liqligi



10-rasm. Ventilyator ish unumining parrak aylanishlar soniga bog'liqligi

Takomillashtirilgan pnevmotransport tizimining paxtaning tabiiy sifatiga ko'rsatadigan mexanik ta'sirlarini baholashda Qishloq xo'jalik texnikasi va texnologiyalarini sinash va sertifikatlash markazi tomonidan GOST 21820.2-76 ga muvofiq tahlil o'tkazildi. "Sulton", "Tafakkur" va "C-6524" navlari bo'yicha barcha qabul kameralaridan bir vaqtda o'tkazilgan paxta chigitlarining shikastlanish darajalari 1000 va 1200 r/min sharoitida agrotexnik talablar darajasida bo'lgan, ya'ni 1 % dan oshmagan.

Dissertatsiyaning "**Samarador ventilyatorga ega pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasi dala sinovlari hamda iqtisodiy samaradorlik**" deb nomlangan to'rtinchi bobida samarador ventilyatorga ega takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasining qisqacha texnik tavsifi, dala sinovlari natijalari va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari keltirilgan.

Tajribaviy paxta terish mashinasi Qishloq xo'jalik texnikasi va texnologiyalarini sertifikatlash va sinash markazi xodimlari ishtirokida Toshkent viloyati "Hur O'lka Fayz" fermer xo'jaligi dalasida sinovdan o'tkazildi (11-rasm).



11-rasm. Samarador pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasining dala sinovlari jarayoni

Quyidagi 4-jadvalda samarador ventilyatorga ega pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasining 1 martalik terimdagi sifati ko'rsatkichlari keltirilgan.

4-jadval

Tajribaviy paxta terish mashinaning bir martalik terimdagi sifati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar nomi	Ko'rsatkichlarning qiymati			
	TSt 25272604 - 027:2017 bo'yicha	Sinov natijasi bo'yicha		
Ishchi tirqish kengligi, mm	26 dan 32 gacha	34-30	32-28	30-26
Paxta dalasi hosildorligi, q/ha	ma'lumotlar yo'q	38,07		
Terilgan paxtaning ifloslanish darajasi, %	10 dan oshmasligi kerak	7,4	7,8	8,7
Chigitlarning shikastlanish darajasi, %	1,0 dan oshmasligi kerak	0,2	0,6	0,8

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir martalik terimda terilgan paxtadagi chigitlar shikastlanishi ko'rsatkichi hatto eng kichik ishchi tirqish kengligida (old juft barabanlarda 30 mm, orqa juft barabanlarda 26 mm) ham 0,8 % ni tashkil etdi, bu esa chigitlar shikastlanish darajasi agrotexnik talablari doirasida ekanligini bildiradi. Demak, takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi bilan jihozlangan paxta terish mashinasi terilgan paxtaning sifati jihatdan samaradordir.

O'tkazilgan hisoblarning ko'rsatishicha, takomillashtirilgan pnevmotransport tizimini yarim tirkama paxta terish mashinalarida qo'llash mehnat sarfini 14,7 % ga va ekspluatatsion xarajatlarni 12,5 % ga kamaytirar ekan. Asosan traktor uchun sarflanadigan yonilg'i hamda mehnat va ekspluatatsion xarajatlar kamayishi hisobiga mazkur pnevmotransport tizimini bitta mashinada qo'llashdan olinadigan yillik iqtisodiy samara 17 376 084,14 UZSni tashkil etadi.

XULOSA

“Paxta terish mashinasi pnevmotransport tizimining samarador markazdan qochma ventilyatori parametrlarini asoslash” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Paxta terish mashinalarining pnevmotransport tizimi konstruksiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot va qiyosiy sinovlar natijalari shuni ko'rsatdiki, yarim tirkama paxta terish mashinalari energiya tejamkor pnevmotransport tizimlarga ega, ammo ularning ta'sirida terilgan paxta chigitlarining shikastlanishi agrotexnik talablarga javob bermaydi.

2. O'tkazilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, yarim tirkama paxta terish mashinalarining so'ruvchi-haydovchi turdagi pnevmotransport tizimlarida

markazdan qochma ventilyatorning yon kirish darchasi ovoid shaklda bo'lishi maqsadga muvofiq.

3. O'tkazilgan nazariy tadqiqotlar natijasida samarador ventilyatorga ega takomillashtirilgan pnevmotransport tizimining aerodinamik jarayonlari va parametrlarini aniqlash imkonini beradigan analitik bog'lanishlar, matematik modellar hamda ular bo'yicha o'tkazilgan hisobiy natijalar olindi:

ovoid shakldagi yon kirish darchasining pastki radiusi 250 mm, ovoid uzunligi 335 mm, ovoid markazidan parabola uchigacha bo'lgan masofa 85 mm, uning vertikalga nisbatan joylashish burchagi 30° bo'lishi lozim.

4. O'tkazilgan tajribaviy tadqiqotlar natijalariga ko'ra, tajribaviy paxta terish mashinasi o'rnatilgan traktorning tezligi 4,23-5,13 km/h hamda pnevmotransport tizimidagi yon kirish darchasi ovoid shaklda va kirish darchasining pastki radiusi 250 mm, ovoid uzunligi 335 mm, ovoid markazidan parabola uchigacha bo'lgan masofa 85 mm, uning vertikalga nisbatan joylashish burchagi 30° bo'lganda paxta terimining agrotexnik talab darajasida bo'lishi ta'minlanadi.

5. Asoslangan tur va parametrlarga ega bo'lgan takomillashtirilgan pnevmotransport tizimi yarim tirkama paxta terish mashinalarida qo'llanilganda mehnat sarfi 14,7 % ga va ekspluatatsion xarajatlar 12,5 % ga kamaygan. Buning evaziga takomillashtirilgan pnevmotransport tizimini bitta mashinada qo'llashdan olinadigan yillik iqtisodiy samara 17 376 084,14 UZSni tashkil etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.05/13.05.2020.Т.112.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОМ
ИНСТИТУТЕ МЕХАНИЗАЦИИ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА**

**ИНСТИТУТ МЕХАНИКИ И СЕЙСМОСТОЙКОСТИ СООРУЖЕНИЙ
ИМЕНИ М.Т.УРАЗБАЕВА АКАДЕМИИ НАУК
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

НОРМАТОВ МАНСУРБЕК КУЗИБАЕВИЧ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ЭФФЕКТИВНОГО
ЦЕНТРОБЕЖНОГО ВЕНТИЛЯТОРА ПНЕВМОТРАНСПОРТНОЙ
СИСТЕМЫ ХЛОПКОУБОРОЧНОЙ МАШИНЫ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за № В2025.2.PhD/Г4283

Диссертация выполнена в институт механики и сейсмостойкости сооружений имени М.Т.Уразбаева Академии наук Республики Узбекистан.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице по адресу: www.qxmiti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Худайкулиев Ражаббой Рузматович
кандидат технических наук, старший научный сотрудник

Официальные оппоненты:

Толибаев Аллысбай Ержанбаевич
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Кодиралиев Акбаржон
доктор философии по техническим наукам

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится «20» 11 2025 г. в 14⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.05/13.05.2020.T.112.01 при Научно-исследовательском институте механизации сельского хозяйства. (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Научно-исследовательского института механизации сельского хозяйства (регистрационный номер 506). (Адрес: 110800, Ташкентская область, Янгиюльский район, пос. Гульбахор, ул. Самаркандская, 41. Тел.: (+99871) 601-07-04, e-mail: qabulxona@qxmiti.uz).

Автореферат диссертации разослан «31» 10 2025 года.

(Протокол рассылки № 63 от «31» 10 2025 года).



[Handwritten signature]

А. Тухтакулиев
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

[Handwritten signature]

Б.П. Артикбаев
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, PhD по техническим наукам, с.н.с.

[Handwritten signature]

К.К. Нурiev
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире ведущее место занимает разработка энерго-ресурсосберегающих и высокопроизводительных хлопкоуборочных машин для сбора урожая хлопка и их применение на практике. Учитывая, что «более 90 стран мира занимаются хлопководством и ежегодно выращивают урожай хлопка на 32 млн. гектарах площади»¹, одной из важных задач является повышение уровня механизации при сборе хлопка, разработка ресурсосберегающих технологий и технических средств. В связи с этим большое внимание уделяется снижению загрязнения хлопка и повреждения семян хлопчатника для повышения качественных показателей хлопка, собранного в бункер при машинном сборе.

В мире ведутся научно-исследовательские работы по разработке новых ресурсосберегающих и эффективных технических средств для сбора урожая хлопка, повышению качества их работы и снижению энерго-материальной затраты за счет совершенствования существующих. В этом направлении проведение научно-исследовательских работ по повышению производительности хлопкоуборочных машин при минимальных затратах энергии, обеспечению уровня загрязнения собранного хлопка и повреждения семян на уровне агротехнических требований является одной из актуальных задач.

В сельскохозяйственном производстве республики осуществляются широкомасштабные мероприятия по снижению затрат труда и энергии, экономии ресурсов, уборке урожая на основе передовых технологий и разработке высокопроизводительных машин, в том числе особое внимание уделяется разработке усовершенствованных технических средств, обеспечивающих качественное выполнение всех технологических процессов при уборке урожая хлопка с минимальными затратами энергии. В Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы определены задачи, в частности, «...внедрение механизмов снижения государственного участия и повышения инвестиционной привлекательности в отрасли, предусматривающих увеличение потока частного инвестиционного капитала для поддержки модернизации, диверсификации и устойчивого роста сельского хозяйства и пищевой промышленности, рационального использования земельных и водных ресурсов, повышения производительности труда в фермерских хозяйствах, улучшения качества продукции»². При реализации этих задач одной из важных вопросов является обоснование оптимальных параметров и режимов усовершенствованного центробежного вентилятора для пневмотранспортной системы хлопкоуборочных машин.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в Указах Президента Республики

¹ Cotton: World Statistics. <http://www.ICAC.org>; <https://www.statista.com>.

² Указ Президента Республики Узбекистан № УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы».

Узбекистан УП-5853 от 23 октября 2019 года «Об утверждении Стратегии развития сельского хозяйства Республики Узбекистан на 2020-2030 годы» и УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и в Постановлении ПП-4410 от 31 июля 2019 года «О мерах по ускоренному развитию сельскохозяйственного машиностроения, государственной поддержке обеспечения аграрного сектора сельскохозяйственной техникой», а также в других нормативно-правовых документах, принятых в данной сфере.

